

KIYIM DETALLARIGA POLIMER KOMPOZITSIYASINI QO'LLAB AYOLLAR KOSTYUMI KONSTRUKTSIYASINI LOYIHALASH

Musurmonova Nargiza Alijon qizi

@nargizaliyevna.

Toshkent to'qimachilik
va yengil sanoat instituti


Annotatsiya: Maqolada ayollar kostyumi detallariga polimer kompozitsiyasini qo'llagan holda yangi model dizaynini ishlab chiqish ko'rib chiqilgan. Ayollar qomatiga mos holda kostyum asos konstruktsiyasi chizmalari ishlab chiqilgan va model konstruktsiya chizmalari tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Kostyum, polimer kompozitsiya, ayollar komplekti, metodika, konstruktsiya, baska, yubka, shim, jaket.

Hozirgi kunda ayollar komplekti yangi modellarini loyihalash va ularni kichik korxonalarda ishlab chiqarish hozirgi kunda tikuvchilik sanoatida o'ziga xos dolzarb yo'nalishlardan biri xisoblanadi. Maqolada kiyimlarning yangi modellari sifatida ayollar kostyumi namunalari taklif qilindi. Ayollar komplekti kuz va bahor mavsumlari uchun mo'ljallangan.


Maqolada yangi model namunalari ishlab chiqishda texnologik yechimlar ham e'tiborga olindi. Ayollar kostyumini loyihalashda "М.Мюллер и сын" metodikasidan foydalanilgan [1-2]. Metodika bo'yicha tavsiya etilgan o'lcham ko'rsatkich va qo'shimchalar asosida kuzgi va bahorgi mavsum uchun mo'ljallangan 3 ta ayollar kostyumi model konstruktsiyasi ishlab chiqildi.

Komplektlar jaket shim va jaket yubkalardan iborat. Ayollar komplekti model konstruktsiyasi 1-rasmda keltirilgan. Komplekt old bo'laki yelkadan tushgan relyef chokli va yon bo'lakli. Ort bo'lak o'rta chokli. Ayollar jaketi bel qismida baska detali mavjud. Jaketdagi baska detali old va ort qismi yaxlit bichilgan bo'lib, old bo'lakda 2 ta taxlama mavjud. Ushbu baska detalining ort bo'lak qismida modellashtirishning konussimon kengaytirishi, baskaning old bo'lak qismida parallel kengaytirishi qo'llanilgan. Yengi o'tkazma, ikki chokli, yeng uzunligi bilakgacha. Komplekt astar bilan ishlov berilgan.



1-rasm. Ayollar komplekti AK va MK chizmasi (1-model)

Zamonaviy moda yo'nalishi taxlili asosida ayollar kostyumi va shim detallari asos konstruktsiya chizmasi loyihalandi. Ayollar shimi old bo'lak, ort bo'lak, belbog', ko'rinma va cho'ntak xaltalardan iborat.



2-rasm. Ayollar komplekti AK va MK chizmasi (2-model)


Maqolada taklif etilgan ayollar kostyumining 2-model namunalari keltirilgan (2-rasm). Ayollar komplekti jaket va yubkadan iborat. Jaket taqilmasi bir bortli bo'lib, 1 ta tugma izmali. Ayollar jaketi old bo'lak, old pastki bo'lak, old yon bo'lak, ort bo'lak, ort yon bo'lak, ustki va ostki yeng, ustki yoqa, ostki yoqa adip, listochka detallaridan iborat. Komplekt astar bilan ishlov berilgan. Komplekt yubkasi to'g'ri bichimli bo'lib, bel qismi belbog'li. Yubka ort bo'lak qismi kesimli.

Ayollar kostyumini ishlab chiqishda kostyumlik tarkibida elastan mavjud bo'lgan gazlamadan foydalanilgan. Zamonaviy moda tendentsiya talabalaridan kelib chiqib, klassik uslubdagi jaketli komplektlar loyihalandi. Ayollar kostyumi konstruksiyalari 164-88-96 o'lcham guruhidagi ayollar uchun mo'ljallangan.

3-model ayollar komplekti bo'lib, jaket va yubkadan iborat. Komplekt jaketi model konstruksiyasi 3-rasmda keltirilgan. Jaket taqilmasi bir bortli bo'lib, 1 ta tugma izmali. Old bo'lak yelkadan tushgan relyef chokli. Ort bo'lak o'rta chokli bo'lib, ort yon bo'lakli. Ayollar jaketi bel qismida baska detali mavjud. Jaketdagi baska detal ort o'rta qismi chokli. Ushbu baska detalining old va ort bo'lak qismida modelashtirishning konussimon kengaytirish usuli qo'llanilgan. Yengi o'tkazma, ikki chokli, yeng uzunligi bilakgacha. Yoqasi pidjakbop yoqa. Komplekt astar bilan ishlov berilgan.

3-model ayollar komplekti yubka model konstruksiyasi 3-rasmda keltirilgan. Yubka taqilmasi yon tomonda joylashgan. Old bo'lak relyef chokli. Old yon bo'lak yuqori qismi konussimon kengaytirilgan bo'lib, burmaga terilgan. Ort bo'lak relyef chokli. Ayollar yubkasi etak qismi qo'sh etakli. Ushbu detalda modelashtirishning konussimon kengaytirish usuli qo'llanilgan. Bel qismi belbog'li.


Ayollar kostyumi yangi modellari zamonaviy moda tendentsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda loyihalandi. Loyihalangan modellar uchun ayollar kostyumi konstruksiyasi ishlab chiqildi.



3-rasm. Ayollar jaketi AK va MK chizmasi (3-model)

Maqolada ayollar kostyumi 1-model uchun konfeksion xarita ishlab chiqildi (4-rasm). Kostyum jaketi uchun 3-guruh avra gazlama sifatida kostyumlik shoyi matosi, astarlik gazlama, hamda tugmalardan foydalanildi. Ayollar jaketini bezash maqsadida

xrustal toshlardan foydalanildi. Komplekt shimi uchun 2-guruh 7-tarkibida elastan mavjud bo'lgan kostyumlik gazlama namunasidan foydalanildi.

		Kostyumlik gazlama	Artikul
			16899
			17562
Xrustal foshlar		Astarlik gazlama	Artikul
	IMP		11109


4-rasm. Ayollar kostyumi (jaket+shim) uchun konfeksion xarita (1-model)

Kostyum jaketi avra uchun elastan mavjud bo'lgan kostyumlik gazlama namunasi, astarlik gazlama, hamda tugmalardan foydalanildi. Komplekt yubkasida ham tarkibida elastan mavjud bo'lgan gazlama namunasi, astarlik gazlama, hamda tugmalardan foydalanildi.

Maqolada ayollar kostyumi barcha modellar uchun konfeksion xarita ishlab chiqildi. Kostyum jaketi avra uchun kostyumlik gazlama namunasi, astarlik gazlama, hamda tugmalardan foydalanildi. Komplekt yubkasida ham kostyumlik gazlama namunasi, astarlik gazlama, hamda tugmalardan foydalanildi.

Ayollar kostyumini tikish texnologik yechimlari model xususiyatidan kelib chiqib, yangi ishlov berish texnologiyasini qo'llagan holda ishlab chiqildi [2, 3, 4, 5]. Bunda kiyim detallarida qo'llaniladigan qotirma materiallar o'rnini PVA kompozitsiya bilan almashtirildi. Ayollar jaketi old bo'lak, old yon bo'lak, baska, adip, yoqa, yeng uchi, ort bo'lak yeng o'mizi, yeng yuqori qismlarida PVA kompozitsiya qo'llanildi.

Komplekt shimining baska, belbog', taqilma va cho'ntak o'rnida PVA kompozitsiya sepish usuli orqali qo'llanildi. 5-rasmda ayollar kostyumining texnologik yechimlari keltirilgan.



5-rasm. Ayollar jaketini tikish texnologik yechimlari (1-model)

Ayollar komplektini tikishda texnologik ishlov berish usuli keltirilgan (5-rasm). Bunda kiyim detallarida dublerin o'rniga PVA kompozitsiyaning qo'llanilishi chizmalarda ko'rsatilgan.

Jaket detallarida PVA kompozitsiyani qo'llash yangi texnologiyasi orqali buyum detallarini bichish jarayonidagi opresiyalarning kamayishiga erishildi (6-rasm). Bunda mavjud buyumga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha detallar soni 20 tani tashkil etsa (6-rasm a), yangi texnologiya bo'yicha loyihalanayotgan model uchun bichiq detallari soni 16 tani tashkil etdi (6-rasm b). Shu bilan birga buyumga ishlov berish jarayonida qotirma materiallarini bichish va ularni avra gazlamaga yopishtirish operatsiyalariga ketadigan sarf vaqti kamaygan.



a)



b)

6-rasm. Ayollar jaketiga ishlov berishda texnologik yechimning solishtirma fragmenti

Maqolada kiyim detallarida qotirma materiallar va PVA kompozitsiya sarfining solishtirma tahlili ko'rib chiqildi. Bunda PVA kompozitsiya aralashmasining sarf miqdori $10 \times 10 \text{ sm}^2$ gazlama namunasi uchun gazlama turidan kelib chiqqan holda 20-60 mg. ni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikbayeva N.M. Kiyim detallari shakllarqarorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish: t.f.f.d. PhD: -TTYSI.Toshkent, 2024.-187 b.
2. Сборник М.Мюллер и сын-2001., Техника кроя., ж. Ателье.,с.168.
3. Расулова М.К. Разработка способов обеспечения эксплуатационной надежности специальной одежды: д.т.н.дисс... 05.06.04. - ТИТЛП- Ташкент, 2021. - 137с.
4. Алимухамедова Б.Г. Разработка способов обеспечения прочностных свойств ниточных соединений швейных изделий. [Текст] / Б.Г.Алимухамедова // автореф. дис... канд.тех.наук: 05.06.04. - ТИТЛП- Ташкент, 2021. - 48с.
5. Л.Н.Нутфуллаева. Намлаб-иситиб ишлов бериш жараёнида тикув буюмлари шаклбарқарорлигини ошириш технологиясини ишлаб чиқиш. / Л.Н.Нутфуллаева // т.ф.н.дисс. 05.06.04.-ТТЕСИ-тошкент, 2019-122 б.
6. Исмаилова С.И. Разработка технологии изготовления формоустойчивых деталей одежды с использованием полимерных композиционных материалов: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук: 05.19.04/ – Ташкент, ТИТЛП-2011 С.142.